

Tartib intizom- muvaffaqiyat garovidir

Joriy yilning 14 sentyabr kuni yotoqxonadagi talabalar bilan universitet mamuriyati o'rtasida yig'ilish o'tkazildi.





Yig'ilishda universitet rektori Inoyatxodjayev J., universitet birinchi prorektori Ashurov A., yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Allamova G., xotin-qizlar va oila masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi Nabixanova F., rektor maslahatchisi Boymatov N., TTJ kommandanti – Nurahmedov K, profilaktika inspektori – mayor Yusupov O., akademik guruh tyutorlari va universitet yotoqxonasida yashovchi talabalar ishtirok etdi.



www.polito.uz





Yig'ilishda talabalarga yotoqxonaga ichki tartib qoidalari to'liq tanishtirildi, hamda ularga qat'iy amal qilish belgilandi. Talaba yotoqxonasi, mulki va jihozlarini asrab-avaylashi va boshqa umumiy foydalanish joylarini har doim toza va tartibli tutishi lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali o'tkazishlari, muntazam sport bilan shug'ullanishlari uchun universitetda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirildi.